BOLALR HUQUQLARNI TA‘MINLASHDA OZBEKISTON VA XALQARO TAJRIBANING QIYOSIY TAHLILI

Mamura Ubaydullayeva Burxon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,Ijtimoiy ish yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda bolalar huquqlarini ta’minlashning milliy va xalqaro mexanizmlari qiyosiy-huquqiy hamda ijtimoiy tahlil asosida o‘rganildi. O‘zbekiston Respublikasida bolalar huquqlarini himoya qilishning tashkiliy-institutsional xususiyatlari, xalqaro tajribada qo‘llanilayotgan bola manfaatlarining ustuvorligi, bolalarning qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki, zo‘ravonlikning oldini olish va ijtimoiy himoya mexanizmlari tahlil qilindi. Xorijiy ilmiy tadqiqotlar asosida milliy amaliyotning ustun jihatlari, mavjud muammolari va takomillashtirish istiqbollari amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: bola huquqlari, bolalar manfaatlari, xalqaro tajriba, ijtimoiy himoya, qiyosiy tahlil, bolalar ombudsmani, zo‘ravonlik profilaktikasi, ijtimoiy adaptatsiya, bolalar ishtiroki, institutsional mexanizm.

Kirish

Bolalar huquqlarini ta’minlash zamonaviy demokratik jamiyatning ijtimoiy-huquqiy taraqqiyotini belgilovchi muhim mezonlardan biridir. Chunki bolalik davrida insonning jismoniy, intellektual, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishi shakllanadi. Shu sababli bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish faqat davlatning huquqiy majburiyati emas, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi strategik vazifadir. So‘nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlarda bolalar huquqlarini ta’minlash masalasi faqat huquqiy kafolatlar mavjudligi bilan emas, balki ushbu kafolatlarning kundalik hayotda qay darajada amalga oshirilishi bilan baholanishi lozimligi ta’kidlanmoqda. O‘zbekistonda bolalar huquqlarini himoya qilish tizimining institutsional rivojlanishida Prezidentning 2021-yil 9-avgustdagi PF-6275-son Farmoni muhim bosqich bo‘ldi. Mazkur hujjat asosida Bolalar ombudsmani institutini ta’sis etish belgilandi. Keyinchalik 2024-yil 29-fevraldagi O‘RQ-917-son Qonun bilan ushbu institutning huquqiy maqomi va faoliyat prinsiplari mustahkamlandi. Bu esa bolalar huquqlarini himoya qilishda parlament nazoratining alohida mexanizmini shakllantirdi. Shuningdek, Prezidentning 2025-yil 24-dekabrdagi PF-256-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiya bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish, xavf holatlarini erta aniqlash, oilaga yaqin muhitda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va xavfsiz ta’lim muhitini yaratishni ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgiladi. Ushbu strategiyaning ahamiyati shundaki, unda bolalarni himoya qilish faqat sodir etilgan huquqbuzarlikka javob berish bilan cheklanmay, profilaktika va kompleks ijtimoiy xizmatlar tizimiga yo‘naltirilgan.

Urinboyev va Ibragimov (2025) O‘zbekistondagi bolalar huquqlarini oilaviy nizolar misolida o‘rganib, xalqaro standartlarning milliy amaliyotga tatbiq etilishida huquqiy normalar bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, mahalla institutlari va mutaxassislarning qarashlari ham muhim ta’sir ko‘rsatishini asoslagan. Mazkur holat mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Chunki bolalar huquqlarini samarali ta’minlashda qonunchilikni takomillashtirish bilan bir qatorda, institutsional hamkorlik, ijtimoiy xizmatlar sifati va bolalarning o‘z huquqlariga oid masalalarda mustaqil fikr bildirish imkoniyatlarini kengaytirish ham zarur.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda bolalar huquqlarini ta’minlash mexanizmlarini xalqaro tajriba bilan qiyosiy o‘rganish, mavjud muammolarni ilmiy jihatdan aniqlash hamda milliy tizimni takomillashtirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda jarayonida qiyosiy tahlil, ilmiy adabiyotlarni tizimli o‘rganish, kontent-tahlil, umumlashtirish va institutsional tahlil metodlaridan foydalanildi. Ilmiy asos sifatida 2024–2026-yillarda e’lon qilingan xalqaro va milliy ilmiy maqolalar, shuningdek, bolalar huquqlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar tanlab olindi. Bolalarning qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtiroki ham xalqaro ilmiy adabiyotlarda muhim mezon sifatida qaralmoqda.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

Kosher va hammualliflarning 2024-yildagi tadqiqotida 32 mamlakatdan 46 ming nafar bolaning oiladagi, maktabdagi va mahalladagi ishtiroki o‘rganilgan. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, bolalarning kundalik hayotdagi ishtiroki kattalar bilan o‘zaro munosabatlar sifati bilan ijobiy bog‘liq. Bu esa bolani faqat himoyaga muhtoj obyekt sifatida emas, balki o‘z fikri va manfaatlariga ega faol subyekt sifatida qabul qilish zarurligini ko‘rsatadi. Yevropaning beshta davlati — Bolgariya, Irlandiya, Malta, Norvegiya va Serbiyada bolalarning himoya xizmatlari doirasidagi ishtirokini o‘rgangan 2024-yilgi qiyosiy tadqiqotda esa bolalar fikrini inobatga olish uchun huquqiy normalarning o‘zi yetarli emasligi, buning uchun malakali mutaxassislar, moliyaviy resurslar va tegishli tashkiliy infratuzilma zarurligi asoslangan. Natijalarga ko‘ra, ota-onasi ularni tinglashi va fikrini hisobga olishini yuqori darajada ma’qullagan bolalar ulushi 79,7 foizni, o‘qituvchilari ularni tinglashini yuqori darajada ma’qullaganlar ulushi 76,1 foizni, yashash hududidagi kattalar bolalarni tinglashini yuqori darajada ma’qullaganlar ulushi esa 64,1 foizni tashkil etgan.

O‘zbekiston tajribasida esa bolalar huquqlarini ta’minlashda davlat organlari, ta’lim muassasalari, oilalar va mahalla institutlari o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borishi muhim o‘rin tutadi. Biroq Urinboyev va Ibragimov (2025) tadqiqotida aniqlanganidek, bolalar manfaatlariga oid ayrim oilaviy nizolarni hal etishda rasmiy huquqiy normalar bilan bir qatorda mahalliy ijtimoiy-madaniy qarashlar ham qarorlar mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat bolalar manfaatlarini baholashda individual yondashuv va mustaqil professional xulosalarning ahamiyatini oshirdi.

- Erta aniqlash va profilaktika tizimini rivojlantirish. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktablar, tibbiyot muassasalari va mahallalarda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, beparvolik hamda huquqlarning buzilishi holatlarini erta aniqlashning o‘zaro bog‘langan mexanizmini shakllantirish.
- Multidisiplinar ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish. Bolalar bilan bog‘liq murakkab vaziyatlarda psixolog, pedagog, huquqshunos, ijtimoiy xodim va tibbiyot mutaxassislarining birgalikdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yish.
- Bolalarning mustaqil fikr bildirish imkoniyatlarini kengaytirish. Ta’lim muassasalari, oilaviy maslahat jarayonlari va bolalarni himoya qilishga oid qarorlarda ularning yoshiga mos tarzda ishtirok etishini ta’minlash.
- Natijadorlikni baholash indikatorlarini joriy etish. Bolalar huquqlarini ta’minlash samaradorligini faqat amalga oshirilgan tadbirlar soni bilan emas, balki murojaatlarning hal etilishi, himoya xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, takroriy zo‘ravonlik holatlari va bolalarning ijtimoiy-psixologik holatidagi o‘zgarishlar orqali baholash.

1-jadval

O‘zbekiston va xalqaro tajribaning qiyosiy tahlili

Tahlil mezoni	Xalqaro tajriba	O’zbekiston tajriba
Bola manfaatlarining ustuvorligi	Qarorlarni bolaning individual ehtiyojlari asosida baholash	Huquqiy kafolatlar mavjud, amaliyotda ijtimoiy-madaniy omillar ham ta’sir ko‘rsatadi
Bolaning fikrini inobatga olish	Bolaning qarorlarda mazmunli ishtirokini ta’minlashga e’tibor kuchli	Bolaning fikrini eshitish mexanizmlarini amaliy jihatdan rivojlantirish zarur
Zo‘ravonlik profilaktikasi	Erta aniqlash, ixtisoslashgan xizmatlar va psixologik yordam	Profilaktika, ta’lim va ijtimoiy himoya xizmatlari integratsiyasini kuchaytirish lozim
Institutsional himoya	Idoralararo va multidisiplinar hamkorlik	Davlat organlari, mahalla, oila va ta’lim muassasalari hamkorligi muhim

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

Ijtimoiy reabilitatsiya	Individual ehtiyojga asoslangan kompleks yordam	Psixologik va ijtimoiy xizmatlarning uzluksizligini oshirish zarur

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, xalqaro tajribaning muhim ustunligi bolalarni himoya qilish jarayonining ko‘p tarmoqli tashkil etilganligida namoyon bo‘ladi. Bunda huquqshunos, psixolog, pedagog, ijtimoiy xodim va tibbiyot mutaxassislarining hamkorligi bolaga ko‘rsatiladigan yordamning samaradorligini oshiradi. O‘zbekiston uchun esa xalqaro tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki milliy ijtimoiy-madaniy sharoitga moslashtirish muhimdir. Ayniqsa, mahalla institutining mavjud imkoniyatlarini bolalarning individual huquq va manfaatlarini ta’minlashga yo‘naltirish, oilaviy muammolarni erta aniqlash va professional ijtimoiy xizmatlar bilan bog‘lash dolzarb vazifalardan hisoblandi.

Rakhmonova (2024) o‘zining “Implementation of the UN Convention on the Rights of the Child in Uzbekistan: Current Situation and Prospects” nomli ilmiy maqolasida BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi normalarining O‘zbekistonda amalga oshirilishini tahlil qilgan. Muallif bolalarni jismoniy, ruhiy va jinsiy zo‘ravonlikdan himoya qilish, ta’lim muassasalaridagi bezorilikning oldini olish va bolalarning huquqiy savodxonligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratgan.

Bolalar manfaatlarini individual baholash mexanizmini kuchaytirish. Oilaviy nizolar, vasiylik, ta’lim va ijtimoiy himoyaga oid qarorlarni qabul qilishda bolaning yoshi, psixologik holati, ehtiyojlari va shaxsiy fikrini kompleks baholash amaliyotini kengaytirish.

- Erta aniqlash va profilaktika tizimini rivojlantirish. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktablar, tibbiyot muassasalari va mahallalarda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, beparvolik hamda huquqlarning buzilishi holatlarini erta aniqlashning o‘zaro bog‘langan mexanizmini shakllantirish.
- Multidisiplinar ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish. Bolalar bilan bog‘liq murakkab vaziyatlarda psixolog, pedagog, huquqshunos, ijtimoiy xodim va tibbiyot mutaxassislarining birgalikdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yish.
- Bolalarning mustaqil fikr bildirish imkoniyatlarini kengaytirish. Ta’lim muassasalari, oilaviy maslahat jarayonlari va bolalarni himoya qilishga oid qarorlarda ularning yoshiga mos tarzda ishtirok etishini ta’minlash.
- Natijadorlikni baholash indikatorlarini joriy etish. Bolalar huquqlarini ta’minlash samaradorligini faqat amalga oshirilgan tadbirlar soni bilan emas, balki murojaatlarning hal etilishi, himoya xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, takroriy zo‘ravonlik holatlari va bolalarning ijtimoiy-psixologik holatidagi o‘zgarishlar orqali baholash.

Bolalar huquqlarini ta’minlashning zamonaviy ilmiy konsepsiyasi uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishga asoslanadi:

Provision (ta’minlash) – bolaning ta’lim, sog‘liqni saqlash, munosib yashash va rivojlanish imkoniyatlarini kafolatlash.

Protection (himoya qilish) – bolani zo‘ravonlik, ekspluatatsiya, kamsitish va beparvolikdan himoya qilish.

Participation (ishtirok) – bolaning o‘ziga daxldor masalalarda fikr bildirish va qarorlar qabul qilinishida ishtirok etish huquqini ta’minlash.

Xulosa

Xalqaro ilmiy tadqiqotlar bolani faqat himoyaga muhtoj obyekt sifatida emas, balki mustaqil huquq subyekti sifatida e’tirof etish zarurligini asoslaydi. Shvetsiya tajribasi bolalarning individual suhbatlardagi ishtirokini ta’minlash muhimligini, Yevropaning besh mamlakatidagi qiyosiy tadqiqot esa huquqiy kafolatlarni amaliyotga tatbiq etishda moliyaviy, tashkiliy va kadrlar salohiyatining ahamiyatini ko‘rsatadi. O‘zbekiston tajribasining o‘ziga xos jihati davlat organlari, oila va mahalla institutlari o‘rtasidagi hamkorlikka asoslanganligidir. Biroq ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun bolalarning individual manfaatlarini baholash, ularning fikrini mustaqil eshitish,

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

professional ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish va xalqaro tajribaning samarali mexanizmlarini milliy sharoitga moslashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-noyabrdagi O'RQ-996-son Qonuni.
2. Rakhmonova S. Implementation of the UN Convention on the Rights of the Child in Uzbekistan: Current Situation and Prospects // Society and Innovations. – 2024. – Vol. 5, No. 6. – P. 270–278.
3. Urinboyev R., Ibragimov D. Understanding Children's Rights in the Context of a Hybrid Legal Regime: A Socio-Legal Analysis of Child Custody Issues in Uzbekistan // International Journal of Law, Policy and the Family. – 2025. – Vol. 39, No. 1. – Article ebaf011.
4. Kosher H. et al. Children's Participation in Everyday Life: An International Overview // Children & Society. – 2024. – Vol. 38, No. 6. – P. 1899–1919.
5. The Meaningful Participation of Children in Matters That Affect Them: Child Participation in the Context of Child Protection Across Five European Countries // Children and Youth Services Review. – 2024.
6. Assessing the Impacts on Child Welfare Practice of Important Articles of the UN Convention on the Rights of the Child: A Comparison of Australia, Canada and the USA // Child Protection and Practice. – 2026.
7. Ganiev M. Socio-Psychological Mechanisms of Child Protection From Violence: International Experience and the Practice of Uzbekistan // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2026.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.